



## BOSHLANG'ICH SINFLARDA SAVOD O'RGATISH DAVRIDA KO'RGAZMALI VOSITALARDAN FOYDALANISH

---

*Ro'ziboyeva Gulruksor Sanjar qizi*  
*UrDPI Pedagogika fakulteti Boshlang'ich*  
*ta'lim yo'nalishi talabasi*

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada boshlang'ich sinf o'quvchilariga savod o'rgatish jarayonida ko'rgazmali vositalardan foydalanish va uning ahamiyati xususida fikr yuritilgan.

**Kalit so'zlari:** metod, ko'rgazmali vositalar, so'z, talaffuz mashqlari, tarqatmalar.

Darslarining asosiy maqsadi o'quvchilar nutqini rivojlantirish, til va tafakkur qobiliyatlarini shakllantirishdan iborat. Inson faoliyatining tarixan shakllangan mazmuni gap shaklida umumlashtirgan holda, uni bayon etish va o'zlashtirishda nutqning ham ishtirok etishi birinchi navbatda turadi. Shunday ekan boshlang'ich sinfda talaffuz mashqlarini ishlab chiqish va uni amaliyotga joriy etish, o'quvchilar og'zaki nutqini rivojlantirish yoki unga to'sqinlik qiluvchi kuchlarni aniqlash, ushbu jarayonda, aniq maqsadni ko'zlagan holda pedagogik ta'sir ko'rsatish asosiy mezon hisoblanadi. Boshlang'ich sinf o'quvchilari uchun talaffuz mashqlarini ishlab chiqishda, talaffuz mashg'ulotlari o'quvchilarga faqatgina sayqallangan, ravon nutqni egallash yo'llarini emas, balki undan foydalanish madaniyati va mahoratini ham o'rgatib boradi. O'quvchi nutqini rivojlantirish murakkab jarayon bo'lib, unda barcha imkoniyatlar to'laligicha ishga solinsa, og'zaki va yozma ravishda to'g'ri, jozibador, ravon ifodalashga o'rgatish osonlashadi. Natijada esa o'quvchi nutqini rivojlantirishga keng yo'l ochiladi. Boshlang'ich sinfda talaffuz mashqlarini ishlab chiqish jarayonida o'quvchi nutqiga qo'yiladigan bir qancha talablar mavjud. Metodlar bir qancha asosiy guruhlardan iborat bo'lib, ularning har biri o'z navbatida kichik guruhlar va ularga kiruvchi alohida metodlarga bo'linadi. O'quv-biluv faoliyatini tashkil qilish va amalga oshirish jarayonining o'zi esa axborot uzatish, qabul qilish, anglash va o'quv axborotlarini esda saqlashni hamda olinadigan bilim va ko'nikmalarni amaliyotda qo'llay olishni nazarda tutishni hisob-ga olsak, birinchi guruh metodlariga so'z orqali axborotni uzatish va eshitish orqali qabul qilish metodlari og'zaki metodlar; hikoya, ma'ruza, suhbat va boshqalar; ikkinchi guruh metodlariga o'quv axborotlarini ko'rgazmali uzatish va ko'rish orqali qabul qilish



metodlari — ko'rgazmali metodlar: tasviriy, namoyish qilish va boshqalar; uchinchi guruh metodlariga o'quv axborotini amaliy mehnat harakatlari orqali berish (amaliy metodlar, mashqlar, laboratoriya tajribalari, mehnat harakatlari va boshqalar) kiradi.

Ko'rgazmali qurollarni ta'lim jarayonining har qanday qismida qo'llash mumkin. Shunday ekan, ko'rgazmali qurollar asosan qaysi fanlarni o'qitish jarayonida ko'proq qo'llanilsa, samaraliroq bo'ladi, degan savolning tug'ilishi tabiiy, albatta. Boshlang'ich sinflarning matematika, ona tili va o'qish, tabiatshunoslik, husnixat darslarida ana shunday didaktik materiallardan samarali foydalanish mumkin.

Ko'rgazmali qurollar o'quvchilarga: o'tilgan va yangi mavzuga oid materiallarni o'rganish va o'zlashtirishda; matematikadan mustaqil misol va masalalarni yechishni o'rganishlarida; husnixat darslarida chiroyli yozuv malakalarini puxta egallash uchun turli mashqlarni bajarishlarida;

ona tili va o'qish darslarida berilgan topshiriqlarni barcha talablar asosida mustaqil bajarishni o'rganishlarida;

tabiatshunoslik darslarida tevarak-atrof va muhit bilan bog'liq bo'lgan turli vazifalarni ekologik jihatdan hal etishlarida yaqindan yordam beradi. Ko'rgazmali didaktik o'quv qurollari ikkiga bo'linadi. Bular:

- nashriyot tomonidan tayyorlangan ko'rgazmali vositalar
- o'qituvchi tomonidan tayyorlangan ko'rgazmali vositalardir.

Nashriyot tomonidan tayyorlangan ko'rgazmali vositalar quyidagi ko'rinishlarda tayyorlanadi:

1. Platmassalardan tayyorlangan o'yinchoqlar tarzida.
2. Yog'ochdan (turli konstruktor elementlari tarzida).
3. Karton qog'ozlaridan.
4. Katta o'lchamdagi qog'ozlarga ishlangan ko'rgazmali qurollar (tablitsalar).
5. Oson yig'iladigan maketlar ( kub, prizma, paralelepiped va h.k.).
6. Mulyajlar (sabzavot va mevalar, turli qushlar va jonivorlar).
7. Rangli suratlar
8. Turli fanlar (matematika, husnixat, ona tili) da qo'lanilishi mumkin bo'lgan kartochkalar va boshqalar.

Mazkur tarqatma materiallar va ko'rgazmali qurollar yordamida o'quvchilar: faqat o'qituvchidan emas, balki ko'rgazmali qurollardan, ularni o'zaro hamkorlikda bajarayotgan sinfdoshlaridan ham o'rganib, o'zlashtirib oladilar; mustaqil ravishda berilgan topshiriqlarni bajara olish malakasiga ega bo'ladilar;



berilayotgan yangi ma'lumotlar to'g'risida yaxlit tasavvurga ega bo'ladilar. Ko'rgazmali qurollarni yaratish o'qituvchidan ijodkorlikni talab qiladi. Shunga ko'ra siz ham o'zingiz tayyorlagan ko'rgazmali qurollarni keng o'qituvchilar ommasiga taqdim etgan holda turli kamchiliklarini aniqlab, kelajakda mukammal maqsadni amalga oshirishga yordam beradigan turlari yoki variantlarini yaratishingiz mumkin.

Xulosa qilib aytganda, savod o'rgatish darslarida o'quvchi nutqini rivojlantirish, ularni mustaqil fikrlashga o'rgatish, bugungi globallashuv va jamiyat taraqqiyoti talabi darajasiga mos keladigan iste'dodli, iqtidorli, mulohazali, dunyo qarashi keng ijodiy fikrga ega bo'lgan komil insonni tarbiyalashni taqozo etadi. Shunday ekan, maktablarda boshlang'ich sinflarda savod o'rgatish darslariga muvofiq keladigan samarali usullarni belgilash va ularni amalga oshirishda o'quvchilarning individual va psixologik xususiyatlarini hisobga olgan holda, ta'lim jarayonini to'g'ri tashkillashtirish o'qituvchining asosiy vazifasi hisoblanadi.

#### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:**

1. Tolipov U.K., Sharipov Sh.S. O'quvchi shaxsi ijodkorlik faoliyatini rivojlantirishning pedagogik asoslari. – T., Fan, 2012
2. Yo'ldashev J. G., Usmonov S.A. Zamonaviy pedagogik texnologiyalarni amaliyotga joriy qilish. – T: Fan va texnologiya, 2008
3. T.G'afforova, X.G'ulomova, G.Eshturdiyeva. 1-sinfda savod darslari. Toshkent. "O'qituvchi", 1996. 6-bet.
4. G'oyibnazar Ernazarov. Boshlang'ich sinflarda ona tili o'qitish metodikasi. Toshkent. "Ilm ziyo", 2013. 9-bet.